

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

RO'YXATGA OLINDI
№ vm – 343 - 5A340607 – 2.04
« 1 » Iyul 2003 y

«TASDIQLANDI»
O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi

« 8 » Iyul 2003 y

MOLIYA BOZORINI MUVOFIQLASHTIRISH
fanidan

D A S T U R

Oliy ta'limning 340000 -«Biznes va boshqaruv»
ta'lim sohasidagi 5A340607 - «Xalqaro moliya bozorlaridagi operatsiyalar»
magistratura mutaxassisligi uchun

Toshkent-2003

Tuzuvchilar: Shoxa'zamiy Sh.Sh.
Djuraev V.D.

Taqrizchilar: Nuritdinov B.S.
Abduraimov A.A.
Ismoilov K.

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-sonli qaroriga asosan hamda ularning negizida ishlab chiqilgan 5A340607 – "Xalqaro moliyaviy bozorlardagi operatsiyalar", 5A340608 – "Qimmatli qog'ozlar va birja ishi", 5A340614 – "Investitsiyalar bozorlarini boshqarish" va 5A340708 – "Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari" ta'lim sohalari bo'yicha Davlat Ta'lim Standartlari talablari doirasida tayyorlangan. Dasturda fanning nazariy, uslubiy, amaliy mavzulari va masalalari etarli yoritilgan. Dastur doirasida fanni o'rganish zamonaviy pedagogik, o'quv-uslubiy, ilmiy va amaliy texnologiyalarga asoslanadi. Dastur iqtisodiy yo'nalishdagi magistratura talabalarini o'qitishga mo'ljallangan.

Настоящая программа подготовлена на основе Закона Республики Узбекистан "Об образовании" и постановления Кабинета Министров от 16 августа 2001 года №343, а также разработанных на их основе Государственных Стандартов по направлениям образования 5A340607 – "Операции на международных финансовых рынках", 5A340608 – "Ценные бумаги и биржевое дело", 5A340614 – "Управление рынками инвестиций" и 5A340708 – "Операции банков с ценными бумагами". В ней в достаточной мере освещены теоретические, методологические, практические темы и вопросы дисциплины. Изучение дисциплины в рамках программы основывается на современные педагогические, учебно-методические, научные и практические технологии. Программа предназначена для обучения студентов магистратуры экономических направлений.

This program was prepared according to the law of the Republic of Uzbekistan " About Education" and to the enactment of the Cabinet of Ministers (from August 16, 2001, №343), as well as according to the State Educational Standards, such as 5A340607- "Operations at International Financial Markets", 5A340608- "Securities and Stock Exchange", 5A340614 – " Management of Investment Markets ", 5A340708 – "The securities operations of banks ", created on basis of the aforementioned laws. Theoretical, methodological, practical themes and issues of the discipline were sufficiently stated in the program. According to the program, studies of the discipline are based on the up-to-date pedagogical, educational, methodological, scientific, and practical technologies. The program is designed for tuition of graduate students' of economical directions.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (25 aprel 2003 yil 9-sonli bayonnoma)

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSHI

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunida, Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturida har tomonlama etuk va barkamol kadr-mutaxassislarni tayyorlash ishlari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi ekanligi qayd etilgan. Ushbu ishlarni amalga oshirish borasida Vazirlar Maxkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-sonli qaroriga asosan ishlab chiqilgan 5A340607 – "Xalqaro moliyaviy bozorlardagi operatsiyalar", 5A340608 – "Qimmatli qog'ozlar va birja ishi", 5A340614 – "Investitsiyalar bozorlarini boshqarish" va 5A340708 – "Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari" ta'lim sohalari bo'yicha Davlat Ta'lim Standartlari joriy qilindi. Amaldagi Standartlar asosida tayyorlangan dastur "Moliya bozorini muvofiqlashtirish" fanining nazariy, uslubiy va amaliy mavzulari hamda masalalarini o'z ichiga olgan bo'lib, fanni o'rganishning zamonaviy pedagogik, o'quv-uslubiy, ilmiy va amaliy texnologiyalarga asoslanadi. Dastur iqtisodiy yo'nalishdagi magistratura talabalarini o'qitishga mo'ljallangan.

O'qitishning maqsadi va vazifasi, hamda boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi

O'qitishning maqsadi talabalarga moliya bozorini muvofiqlashtirish sohasidagi faoliyatning umumlashtirilgan nazariy, metodologik, amaliy bilim va ko'nikmalarini berishdir.

O'qitishning vazifasi talabalarni moliya bozorini muvofiqlashtirish sohasi bo'yicha ilmiy-tadqiqot, ilmiy-pedagogik va amaliy-ishlab chiqarish faoliyatga tayyorlashdir.

"Moliya bozorini muvofiqlashtirish" fani magistraturaning 5A340607 – "Xalqaro moliyaviy bozorlardagi operatsiyalar", 5A340608 – "Qimmatli qog'ozlar va birja ishi", 5A340614 – "Investitsiyalar bozorlarini boshqarish", 5A340708 – "Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari" mutaxassisliklarida asosiy fanlardan biri bo'lib, bu fan ko'rsatilgan yo'nalishlar doirasidagi boshqa fanlarga asoslanadi va ular bilan uzviy bog'langan.

"Moliya bozorini muvofiqlashtirish" fani doirasida magistrant-talabalar bilimiga, uquviga va ko'nikmasiga qo'yiladigan talablar

Talabalar fanni o'rganish natijasida fanni o'qitishdan ko'zlangan maqsad va vazifalarga erishishlari lozim, shu doirada olgan bilimlarini, uquvlarini va ko'nikmalarini ilmiy-tadqiqot, ilmiy-pedagogik va amaliy-ishlab chiqarish faoliyatlarida ko'rsatilgan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha Davlat Ta'lim Standartlarida talab qilinganidek samarali qo'llay olishlari kerak.

Fanni o'qitishdagi yangi texnologiyalar

Talabalarga zamonaviy usulda fanni o'rgatish va ularning bilimini baholash uchun quyidagi texnologiyalar va materiallardan foydalaniladi:

-talabalarni auditoriyada va auditoriyadan tashqari o'qitishning, mustaqil ta'limning pedagogik ilg'or usullari;

-o'qitishning texnik vositalari, o'quv filmlari, slaydlar, didaktik materiallar, plakatlar, testlar, amaliy masalalar, ish o'yinlari, ko'rgazmali qurollar, elektron shakldagi materiallar, statistik axborot, tarqatma o'quv materiallari, metodik ko'rsatmalar, yangi darsliklar, ma'ruza matnlari, monografiyalar;

-tegishli qonuniy va me'yoriy hujjatlar;

-fan bo'yicha xalqaro va O'zbekiston tajribasiga oid tegishli materiallar;

-kompyuter-axborot texnologiyalari, maxsus dasturlari va INTERNET yordamida fanga tegishli bilim va materiallar;

-talabalar bilimini muntazam joriy, oraliq va yakuniy baholashda so'rov, referatlar yozish, test-tekshiruv, amaliy masalalar ehtirish usullaridan foydalanish;

-iqtidorli talabalarga fan doirasida chuqurroq, qo'shimcha va mustaqil ishlashlari uchun sharoitlar yaratib berish;

- mutaxassislarining ilmiy-amaliy maqolalari, moliya bozori (MB) va qimmatli qog'ozlar bozori (QQB) bo'yicha rasmiy axborot byulletenlari va hisobotlar.

Fanni o'qitish semestrlari va uslubiy ko'rsatmalar

“Moliya bozorini muvofiqlashtirish” fani magistraturaning 5A340607 – “Xalqaro moliyaviy bozorlardagi operatsiyalar”, 5A340608 – “Qimmatli qog'ozlar va birja ishi”, 5A340614 – “Investitsiyalar bozorlarini boshqarish”, 5A340708 – “Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari” mutaxassisliklarida birinchi semestrda 20 hafta davomida ushbu dastur asosida o'qitiladi.

Fanni o'qitish mobaynida dasturning fanni o'qitishdagi yangi texnologiyalar bandida keltirilgan materiallar va texnologiyalar uslubiy ko'rsatmalar sifatida qabul qilinishi mumkin.

Fanni o'rganish ma'ruza va amaliy mashg'ulot shaklida auditoriyada o'tish usulida amalga oshiriladi. Talabalar auditoriyada olgan nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlashi uchun mustaqil ta'lim kiritilgan hamda uy vazifalarini bajaradilar. Ularning olgan bilimlarini nazorat qilib borishning test-sinov, oraliq, joriy va yakuniy baholash usullari qo'llaniladi. O'quv jarayoni reyting tizimi asosida tashkil qilinadi va ular o'qituvchilar tomonidan baholanadi.

Umumiy va o'quv ishlari turlari bo'yicha hajmi Davlat Ta'lim Standartida “Moliya bozorini muvofiqlashtirish” faniga jami 120 soat hajmda vaqt ajratilgan. Shundan, 80 soat (40 soat ma'ruza, 40 soat amaliy mashg'ulot) auditoriya mashg'ulotlariga, 40 soat mustaqil ta'limga ajratilgan. Fandan kurs ishi o'qituvchilar rahbarligida bajariladi. Ma'ruza va amaliy mashg'ulot hamda mustaqil ta'lim o'qituvchilar rahbarligida auditoriyada o'tiladi.

2. FAN DASTURI

Ma'ruza mashg'ulotlarining namunaviy mavzusi

Moliya bozori (MB) va qimmatli qog'ozlar bozori (QQB)ni muvofiqlashtirish asoslari

MB va QQBni muvofiqlashtirish ob'ekti, maqsadi va vazifalari.

MB va QQBni muvofiqlashtirishning nazariy, metodologik asoslari va muammolari.

Muvofiqlashtirishning usullari (administrativ, indikativ, korporativ) va modellari.

Shoxmansur Shoxa'zamiy modellari asosida MB va QQBni indikativ usulda muvofiqlashtirishni talqin qilish.

MB va QQBni muvofiqlashtirishning jahon tajribasi.

O'zbekistonda MB va QQBni muvofiqlashtirishning modeli va o'ziga xos xususiyatlari.

MB va QQBni davlat tomonidan muvofiqlashtirish

MB va QQBni davlat tomonidan muvofiqlashtirishning roli, vazifalari, funktsiyalari va mexanizmi.

Moliya sektorini muvofiqlashtirishga davlat aralashuvining sabablari va shakllari.

Moliya tizimini davlat tomonidan muvofiqlashtirish hamda rivojlantirishning asosiy muammolari va yo'nalishlari.

MB va QQBni muvofiqlashtirishga ta'sir etuvchi siyosatlar (pul-kredit, byudjet-soliq, antimonopol).

MB va QQBni, ularning ishtirokchilari faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirishning jahon tajribasi.

O'zbekistonda MB va QQBni hamda ularning ishtirokchilarini davlat tomonidan muvofiqlashtirishning O'zbekiston tajribasi (mexanizmi), muvofiqlashtiruvchi davlat institutlari, ularning o'zaro aloqasi, funktsiyalari va strategiyalari, qonuniy va me'yoriy asoslari.

MB va QQBda o'z-o'zini muvofiqlashtirish

MB va QQBda o'z-o'zini muvofiqlashtirishning roli, vazifalari, funktsiyalari va mexanizmi, o'z-o'zini muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar (O'MT), ularning turlari, o'zaro aloqasi

va MB (QQB)ni muvofiqlashtiruvchi davlat organlari bilan o'zaro bog'liqligi.

MB va QQBni o'z-o'zini muvofiqlashtirishning jahon tajribasi.

QQBda professional ishtirok etishning etik qoidalari.

O'zbekiston MB va QQBda O'MT, ularning MB (QQB)dagi roli, vazifalari, funktsiyalari va faoliyat mexanizmi, qonuniy-me'yoriy asoslari.

O'zbekistondagi O'MTlarning turlari va o'zaro hamda MB (QQB)ni muvofiqlashtiruvchi davlat organlari (institutlari) bilan bog'liqligi.

MB va QQBni muvofiqlashtiruvchi mas'ul davlat institutlari va O'MTlar orasida MB (QQB)ni tartibga solishdagi funktsiyalarni o'zaro taqsimlanishi

MB va KKBni muvofiqlashtiruvchi mas'ul davlat institutlari va UMTlar orasida MB (KKB)ni tartibga solishdagi funktsiyalarni o'zaro taqsimlanishi zarurati, balansi va samarasi.

MB va QQBni muvofiqlashtiruvchi mas'ul davlat institutlari va O'MTlar orasida MB (QQB)ni tartibga solishdagi funktsiyalarni o'zaro taqsimlanishining jahon tajribasi va istiqbollari.

O'zbekistonda MB va QQBni muvofiqlashtiruvchi mas'ul davlat institutlari va O'MTlar orasida MB (QQB)ni tartibga solishdagi funktsiyalarni o'zaro taqsimlanishining sharoitlari, xususiyatlari, qonuniy-me'yoriy asoslari, balansi, samarasi va istiqbollari.

MB va QQBda fond birjalarini muvofiqlashtiruvchi institutlar sifatida shakllanishi va rivojlanishi

MB (QQB)da va iqtisodiyotda fond birjalarining O'MT sifatidagi roli, vazifalari, funktsiyalari va faoliyat mexanizmi.

Jahon fond birjalarining O'MT sifatidagi faoliyati tajribasi.

"Toshkent" Respublika Fond Birjasi (RFB) va Respublika Valyuta Birjasi (RVB), ularning xususiyatlari va muammolari, O'zbekiston iqtisodiyotidagi roli va O'MT sifatida faoliyat yuritishini zarurati, istiqbollari.

MB va QQB mutaxassislari malakasini tasdiqlash (attestatsiyalash) va nazorat qilish

MB va QQB mutaxassislari malakasini oshirish, tasdiqlash (attestatsiyalashning) va faoliyatini nazorat qilib borishning zaruriy ahamiyati, maqsadi va vazifalari. Ichki va tashqi (davlat) attestatsiya.

MB va QQB mutaxassislari malakasini oshirish, tasdiqlash (attestatsiyalashning) va faoliyatini nazorat qilib borishning jahon tajribasi.

MB va QQB mutaxassislari malakasini oshirishning (qayta tayyorlash), tasdiqlash (attestatsiyalashning) va faoliyatini nazorat qilib borishning O'zbekiston tajribasi va undagi muammolar.

Sh.Shoxa'zamiyning QQB mutaxassislari tayyorlash konsortsium markazi, uning faoliyati va QQBdagi roli va vazifasi.

MB va QQBda professional faoliyat yuritishni litsenziyalash

MB va QQBda professional faoliyat yuritishni litsenziyalashning zaruriy ahamiyati, maqsadi, vazifalari va institutlari.

MB va QQBda professional faoliyat yuritishni litsenziyalashning jahon tajribasi.

O'zbekiston MB va QQBda professional faoliyat yuritishni litsenziyalashning mexanizmi, davlat institutlari, xususiyatlari va muammolari.

MB va QQBni muvofiqlashtirish jarayonida sodir bo'luvchi bahslarni hal qilish

MB va QQBni muvofiqlashtirish jarayonlaridagi bahslarning turlari (ichki va tashqi), ularni sodir bulishi sabablari va hal qilish usullari (tinch yo'li, appelyatsiya, sud) va zaruriy ahamiyati.

MB va QQBni muvofiqlashtirish jarayonlaridagi bahslarni hal qilinishining jahon tajribasi.

O'zbekistonda MB va QQBni muvofiqlashtirish jarayonlaridagi bahslarni hal qilinishi mexanizmi.

3. AMALIY MASHG'ULOTLARNING NAMUNAVIY MAVZUSI

Moliya bozori (MB) va qimmatli qog'ozlar bozori (QQB)ni muvofiqlashtirish asoslari

Jahon tajribasida MB va QQBni administrativ (ma'muriy) usulda muvofiqlashtirish modelini qo'llanishini va undagi muammolarini amaliy tahlili.

Jahon tajribasida MB va QQBni indikativ usulda muvofiqlashtirish modelini qo'llanishini va undagi muammolarini amaliy tahlili.

Jahon tajribasida MB va QQBni korporativ usulda muvofiqlashtirish modelini qo'llanishini va undagi muammolarini amaliy tahlili.

Jahon tajribasida MB va QQBni muvofiqlashtirishning ma'muriy va indikativ usullarini o'zaro solishtirish va ularni qo'llanishidagi o'zaro salmog'ining samarali balansini baholash.*

MB va QQBni muvofiqlashtirishning o'zbek modeli va muammolarini amaliy tahlili.*

Sh.Shoxa'zamiy modellari asosida MB va QQBni indikativ usulda muvofiqlashtirishni talqin qilish.

MB va QQBni davlat tomonidan muvofiqlashtirish

Jahon tajribasida MB va QQBni muvofiqlashtirishda davlat pul-kredit siyosati parametrlarining ta'sirini amaliy tahlili.

Jahon tajribasida MB va QQBni muvofiqlashtirishda davlat byudjet-soliq siyosati parametrlarining ta'sirini amaliy tahlili.

Jahon tajribasida MB va QQBni muvofiqlashtirishda davlat antimonopol siyosati parametrlari ta'sirining amaliy tahlili.

O'zbekistonda MB va QQBni davlat tomonidan muvofiqlashtirishning O'zbekiston tajribasi (mexanizmini) va undagi muammolarning amaliy tahlili.

O'zbekistonda MB va QQBni muvofiqlashtirishning qonunchilik asoslari samaradorligining amaliy tahlili;*

O'zbekistonda MB va QQBni muvofiqlashtirishda Markaziy Bank, Moliya vazirligi, Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtiruvchi va nazorat qiluvchi mas'ul organning rolini, vazifalarini va o'zaro bog'liqliligini amaliy tahlili.

Investitsiya institutlari faoliyatini tekshirish tartibini o'rganish.*

Aktsiyadorlik jamiyatlari faoliyatini tekshirish tartibini o'rganish.*

MB va QQBda o'z-o'zini muvofiqlashtirish

Jahon tajribasidagi MB va QQBda o'z-o'zini muvofiqlashtirish mexanizmi, o'z-o'zini muvofiqlashtiruvchi tashkilotlarning (O'MT) turlari va ularning o'zaro aloqasi tahlili.

QQBda professional ishtirok etishning etik qoidalariga amal qilishi samaradorligi.

O'zbekiston MB va QQBda O'MT, ularning qonuniy-me'yoriy asoslarini, o'zaro bog'liqligi va faoliyati samaradorligi tahlili.*

MB va QQBni muvofiqlashtiruvchi mas'ul davlat institutlari va O'MTlar orasida MB (QQB)ni tartibga solishdagi funktsiyalarni o'zaro taqsimlanishi

Jahon tajribasida MB va QQBni muvofiqlashtiruvchi mas'ul davlat institutlari va O'MTlar orasida MB (QQB)ni tartibga solishdagi funktsiyalarning o'zaro taqsimlanishi balansi, samarasi va muammolarining umumiy tahlili.

O'zbekistonda MB va QQBni muvofiqlashtiruvchi mas'ul davlat institutlari va O'MTlar orasida MB (QQB)ni tartibga solishdagi funktsiyalarning o'zaro taqsimlanishi sharoitlari, xususiyatlari, qonuniy-me'yoriy asoslari, balansi (muvozanati) muammolari, samarasi va istiqbollari tahlili.*

MB va QQBda fond birjalarini muvofiqlashtiruvchi institutlar sifatida shakllanishi va rivojlanishi

MB (QQB)da fond birjalarining O'MT sifatidagi faoliyat mexanizmini va uning samarasini rivojlangan chet el mamlakatlar fond birjalari misolida tahlil qilish.*

“Toshkent” Respublika Fond Birjasi (RFB) va Respublika Valyuta Birjasi (RVB), ularning xususiyatlari va muammolarini, O'MT sifatida faoliyat yuritishini zaruriy shart-sharoitlari va istiqbollarini tahlili.

Fond birjalarini mas'ul davlat organi tomonidan tekshirish tartibini o'rganish.

MB va QQB mutaxassislari malakasini tasdiqlash (attestatsiyalash) va nazorat qilish

MB va QQB mutaxassislari malakasini oshirish, tasdiqlash (attestatsiyalashning) va faoliyatini nazorat qilib borish jahon tajribasining umumiy tahlili.

MB va QQB mutaxassislari malakasini oshirishning (qayta tayyorlashning), tasdiqlash (attestatsiyalashning) va faoliyatini nazorat qilib borishning O'zbekiston tajribasi, undagi tartib va muammolar tahlili.*

O'zbekistondagi Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtiruvchi va nazorat qiluvchi mas'ul organning va Sh.Shoxa'zamiyning QQB mutaxassislari tayyorlash konsortsium markazining joriy test-masalalarini echish.

MB va QQBda professional faoliyat yuritishni litsenziyalash

QQBda professional faoliyat yuritishni litsenziyalashning jahon tajribasini umumiy tahlili.

O'zbekiston QQBda professional faoliyat yuritishni litsenziyalashning mexanizmining (tartibini) amaliy tahlili*

O'zbekistonda investitsiya institutlarini litsenziyalashda iqtisodiy meyorlar ko'rsatkichlarini hisoblash va baholash.

O'zbekistonda investitsiya institutlari bo'lgan aktsiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisobotlarini to'liqligi va haqqoniyligining amaliy tahlili.

O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bilan tovlamachilik (manipulyatsiya qilish) harakatlarini aniqlash.*

O'zbekistonda investitsiya institutlarining qimmatli qog'ozlar emissiyasi risolalarining amaliy tahlili.

O'zbekistonda litsenziya qoidalarini buzgan investitsiya institutlariga nisbatan jazolarni qo'llash va ularni ijrosini nazorat qilib borishni amalga oshirish tartibini o'rganish.*

MB va QQBni muvofiqlashtirish jarayonida sodir bo'luvchi bahslarni hal qilish

MB va QQBni muvofiqlashtirish jarayonlaridagi bahslarning turlarini (ichki va tashqi), ularning sodir bo'lishi sabablarini umumiy tahlili.

MB va QQBni muvofiqlashtirish jarayonlaridagi bahslarni hal qilinishning (tinch yo'li, appelyatsiya, sud orqali usullari yordamida) bo'yicha jahon tajribasini o'rganish.

O'zbekistonda MB va QQBni muvofiqlashtirish jarayonlaridagi bahslarni hal qilish mexanizmini amalda qo'llash samaradorligi.*

4. KURS ISHLARINING NAMUNAVIY MAVZUSI**

1. O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorida o'z-o'zini muvofiqlashtirish mexanizmi
2. O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklari faoliyatini muvofiqlashtirish
3. Aktsiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy faoliyatida emissiya, dividend, investitsiya strategiyalarini samarali balansini tashkil etishni muvofiqlashtirish
4. Davlat qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish mexanizmi
5. Korporativ qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish mexanizmi
6. Munitsipal qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish mexanizmi
7. Hosilaviy qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish mexanizmi
8. Investitsiya institutlari faoliyatini muvofiqlashtirish mexanizmi
9. Qimmatli qog'ozlar bozorini fond birjalari yordamida muvofiqlashtirish
10. Qimmatli qog'ozlar bozorini korporativ usulda muvofiqlashtirish mexanizmi
11. Qimmatli qog'ozlar bozorini ma'muriy usulda muvofiqlashtirish mexanizmi
12. Qimmatli qog'ozlar bozorini indikativ usulda muvofiqlashtirish mexanizmi
13. Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtiruvchi mas'ul davlat institutlari va O'MTlar orasida fond bozorini tartibga solishdagi funktsiyalarni o'zaro taqsimlanishining samarasi
14. Pul-kredit va byudjet-soliq siyosatlarini qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirishga ta'siri
15. Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirishning o'zbek modeli
16. Qimmatli qog'ozlar bozori mutaxassislarini attestatsiyalash mexanizmi
17. Investitsiya institutlari faoliyati turlarini lizentsiyalash mexanizmi
18. Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish jarayonlaridagi bahslar va ularni hal qilish yo'llari
19. Qimmatli qog'ozlar bilan tovlamachilik (manipulyatsiya qilish) harakatlarni aniqlash va oldini olish mexanizmi
20. Qimmatli qog'ozlar bozorida professional ishtirok etishning etik madaniyati qoidalari
21. O'zbekistonda litsenziya qoidalarini buzgan investitsiya institutlariga nisbatan jazolarni qo'llash va ularni ijrosini nazorat qilish samaradorligini oshirish
22. O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorida informatsion shaffoflikni ta'minlash
23. O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorini davlat tomonidan muvofiqlashtirish mexanizmi
24. O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorining qonuniy-me'yoriy asoslari va ularga amal qilish samarasi
25. O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorida investorlarni qo'llab-quvvatlash va huquqlarini himoyalash
26. O'zbekistonda depozitar tizimni tartibga solish
27. O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar kliringi tizimini tartibga solish
28. O'zbekistonda qimmatli qog'ozlarning nobirja bozorini tartibga solish
29. O'zbekistonda qimmatli qog'ozlarning birja bozorini tartibga solish
30. O'zbekistonda tashkillashtirilgan valyuta bozorini tartibga solish
31. Qo'shimcha mavzular.***

Izoh:

* - Talaba shu mavzularni chuqur bilishi lozim.

** - Fan bo'yicha har bir talaba dissertatsiya ishi mavzusiga va mazmuniga mos keladigan kurs ishi mavzusini tanlashi mumkin, bunda kurs ishining birinchi ilovasida mavzuga tegishli kamida 10 tadan iborat test-masalalar to'plami talaba tomonidan ishlab chiqilib bilimlarni baholash uchun tavsiya sifatida keltirilishi lozim.

*** - Mutaxassislik kafedrasida kurs ishlari mavzulariga o'zgartirishlar va qo'shimcha mavzularini belgilangan tartibda kiritishi mumkin.

5. TAVSIYA ETILGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA-NAMOYISH MATERIALLARI, O'QUV FILMLARI VA BOSHQA DIDAKTIK MATERIALLAR

Ushbu dasturning fanni o'qitishdagi yangi texnologiyalar, fanni o'qitish semestrlari va uslubiy ko'rsatmalar bandlarida ko'rsatilganlarning tegishlilari qo'llanilishi hamda kerakli tashkilotlarning sayt va elektron pochta orqali foydalanish mumkin. Bunda kerakli tashkilotlarning sayt va elektron pochta orqali kafedra tomonidan berilib boriladi.

Tavsiya etiladigan saytlar:

1. Fond birjalarining xalqaro federatsiyasi <http://www.fibv.com/>
2. Qimmatli qog'ozlar bo'yicha komissiyalarning xalqaro tashkiloti <http://www.iosco.org/>
3. AQSh Qimmatli qog'ozlar va birjalar bo'yicha komissiyasi <http://www.sek.gov/>
4. Evropa ittifoqi direktivalarining to'liq matni <http://www.europa.eu.int/>
5. Fransiyaning birjaviy operatsiyalari bo'yicha komissiyasi <http://www.cob.fr/>
6. Italiyaning fond bozori bo'yicha komissiyasi CONSOB <http://www.consob.it/>
7. Ispaniyaning fond bozori bo'yicha milliy komissiyasi CNMV <http://www.cnmv.es/>
8. Avstraliyaning qimmatli qog'ozlar va investitsiyalar bo'yicha komissiyasi ASIC <http://www.asic.gov.au/>
9. O'zbekiston Respublikasi Davlat Markaziy Depozitariysi <http://www.deponet.uz/>
10. "Toshkent" RFB <http://www.uzse.com/>
11. O'zbekiston Respublikasi Davlat Mulki Qumitasi qoshidagi Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish Markazi <http://www.atm.uz/>
12. Jurnal "Rinok tsennix bumag" (RF) <http://www.rcb.ru/>
13. OESR <http://www.oecd.org/>
14. Evropa investitsiya banki European Investment Bank <http://www.eib.org/>
15. Evropa tiklanish va taraqqiyot banki European Bank for Reconstruction and Development <http://www.ebrd.com/>
16. Evropa va Osiyo mamlakatlari fond birjalari Federatsiyasi Federation of Euro-Asian Stock Exchanges <http://www.feas.org/>
17. Evropa fond birjalari Federatsiyasi Federation of European Stock Exchanges <http://www.fese.be/>
18. Shimoliy Amerika fond birjalari Federatsiyasi Federacion Iberoamericana de Bolsas de Valores <http://www.fiabv.org/>
19. Merrill Lynch Merrill Lynch <http://www.ml.com/>
20. Morgan Stenli Morgan Stanley <http://www.ms.com/>
21. Dji.Pi.Morgan J.P.Morgan & Co. <http://www.jpmorgan.com/>
22. Buyuk Britaniya, Moliyaviy xizmatlar bo'yicha Kengash The Financial Services Authority <http://www.fsa.gov.uk/>
23. Germaniya, Qimmatli qog'ozlar va fyucherslar bo'yicha Komissiya Bundesaufsichtsamt fur den Wertpapierhandel <http://www.bawe.de/>
24. Gonkong, Qimmatli qog'ozlar va fyucherslar bo'yicha Komissiya Securities and Futures Commission <http://www.hksfc.org.hk/>
25. XXR, Xitoy fond bozori bo'yicha Komissiya China Securities Regulatory Commission <http://www.csrc.gov.cn/>
26. Malayziya, Qimmatli qog'ozlar bo'yicha Komissiya Securities Commission <http://www.sc.com.my/>
27. Rossiya Federatsiyasi, Qimmatli qog'ozlar bo'yicha Federal komissiya <http://www.fedcom.ru/>

28. Yaponiya, Moliya Vazirligi <http://www.mof.go.jp/>

Reyting agentliklari:

29. Moody*s Investors Service <http://www.moodys.com/>
30. Standard & Poor*s <http://www.standardpoor.com/>
31. Fitch IBCA <http://www.fitchibca.com/>
32. Duff & Phelps Credit Rating Co. <http://www.dcrco.com/>

Ilmiy tadqiqot tashkilotlari va konsalting firmalari:

33. Brayan Teylor tadqiqotlari Global Financial Data <http://www.globalfindata.com>
34. Iqtisodiy tadqiqotlar Milliy byurosi (AKSh) National Bureau of Economic Research <http://www.nberws.nber.org/papersbyprog/>
35. Aktsiyalar Nemis instituti Deutsches Aktieninstitut e.V. <http://www.dal.de/>
36. Internet Trading Group <http://www.internettrading.ru/>

Axborot agentliklari:

37. Dow Jones Co. <http://www.dowjones.com/>
38. Reuters <http://www.reuters.com/>
39. Telestock <http://www.teleserv.co.uk/>

6. O'ZLASHTIRISH NAZORATI

Ushbu fan bo'yicha o'quv rejada jami 120 soat ajratilgan bo'lib, shundan 40 soat ma'ruza, 40 soati amaliy ish, 40 soat mustaqil ta'lim. O'quv jarayoni davomida talaba to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ball 120 ga teng bo'lib, shundan joriy baholashga 48 ball, oraliq baholashga 36 ball va yakuniy baholashga 36 ball ajratiladi. "Yozma ish" variantlar bo'yicha tuzilib, u o'quv dasturiga to'liq mos kelishi ta'minlanadi va talabalar reyting tizimi asosida belgilanadi.

Joriy va oraliq baholash turlari uchun fanga belgilangan ballar miqdori o'quv rejasi bo'yicha har semestrda ajratilgan soatning 70 foizi doirasida belgilanadi. O'qitilayotgan fanga ma'sul bo'lgan kafedraning qarori bilan mavzularning murakkabligiga va zaruriyligiga qarab ballar quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha aniqlanadi:

- magistratura tinglovchisining o'quv jarayonidagi davomati va faolligi;
- amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik darajasi;
- fan bo'yicha qonuniy va me'yoriy hujjatlarni konspektlash;
- kafedra tomonidan belgilangan mavzular bo'yicha referat yozish;
- mustaqil ta'lim doirasida berilgan nazorat ishlarini bajarish.

Joriy va oraliq baholash turlari "Yozma ish" usulida yoki boshqa usullarda (og'zaki, test, himoya va xokazo) ham o'tkazilishi mumkin.

Yakuniy baholashda fan bo'yicha dastur to'la o'tilgandan so'ng magistratura tinglovchisining bilimi baholanadi. Yakuniy baholashga ajratilgan ballar miqdori o'quv rejasida fanga ajratilgan soatning 30 foizi miqdorida belgilanadi. Fan bo'yicha yakuniy baholash bosqichi belgilangan tartibda "Yozma ish" usulida o'tkaziladi.

Oliy ta'lim muassasasi fanlar uchun baholash turlarining har biri bo'yicha reyting ballarini hisoblash mexanizmini ishlab chiqadi va uslubiy kengashda tasdiqlaydi.

Semestr yoki o'quv yili davomida o'qitiladigan fan bo'yicha minimal 55 va undan yuqori foizni to'plagan magistratura tinglovchisi qoniqarli o'qiyotgan deb hisoblanadi. Fanlar bo'yicha minimal ballning 55 foizidan kam ball to'plagan magistratura tinglovchisi qoniqarsiz (akademik qarzdor) o'qiyotgan deb hisoblanadi.

Semestr davomida fanlar bo'yicha to'plangan ballar quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi bilan baholanadi:

- 86 foizdan 100 foizgacha (103.2 balldan 120 ballgacha);

- 71 foizdan 85 foizgacha (85.2 balldan 102 ballgacha);

- 55 foizdan 70 foizgacha (66 balldan 84 ballgacha).

“Yozma ish” variantlarini baholash mezonlari kafedra majlisining bayonnomalari bilan tasdiqlanadi.

7. ADABIYO TLAR

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: O'zbekiston, 1999.
2. Karimov I.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish - eng muhim vazifamiz. - T.: O'zbekiston, 2000.
3. Abdullaev E., Shoxa'zamiy Sh.Sh. Qimmatli qog'ozlar.100 savol va javob – T.: Mehnat, 1997, - 260 .
4. Butikov I.L. Qimmatli qog'ozlar bozori. – T.: Konsaditinform, 2001. – 472 .
5. Rubtsov B.B. Mirovie fondovie rinki: sovremennoe sostoyanie i zakonomernosti razvitiya. - M.: FA.- 2000.-312s.
6. Shoxa'zamiy Sh.Sh. va boshqalar. Tadbirkor qimmatli qog'ozlar bozorida.- T.: Adolat, 2002.-275 b.
7. Shoxa'zamiy Sh.Sh. idr. Predprinimatel na rinke tsennix bumag - T.: Adolat, 2002.- 215 s.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Alekseev V.A. Rinok tsennix bumag – M: Finansi i statistika, 1993 – 250 s.
2. Birjevoe delo: Uchebnik / Pod. red. V.A. Galanova, A.I. Basova. – M.: Finansi i statistika, 1998. – 304 s.
3. Rinok tsennix bumag i ego finansovie instituti: Uchebnoe posobie / Pod. rod. V.S. Torkanovskogo, - SPb.: AO “Komplekt”, 1994. – 412 s.
4. Tyulz R., Bredli E., Tyulz T. Fondoviy rinek – 6-e izd.: per. s angl. – M.: INFRA-M, 1997 – VIII – 648 s. (Universitetskiy uchebnik).
5. Sharp U., Aleksander G., Beyli Dj. Investitsii: Per. s angl. – M.: INFRA-M, 1999 – XII, 1028 s.
6. Informatsionnie byulleteni RFB. “Tashkent”
7. Informatsionnie byulleteni “Rinok tsennix bumag”, Agenstva “Konsaditinform”
8. O'zbekiston Respublikasining moliya, bank, qimmatli qog'ozlar bozoriga doir qonuniy-me'yoriy hujjatlari.-sistema “PRAVO”.